(우즈벡어)

<Covid 19 emlashdan keyingi ko’rsatma-1>

○ **Emlash kuni**

- Sog’ligi yaxshi holatida emlash / - emlashdan oldingi ko’rik / - xavfsiz emlash

○ **Emlashdan keyin**

- Emlash muassasasida emlashdan keyingi salbiy reaktsiyalarni nazorat qilish.

○ **Covid 19 ga emlashdan keyingi ehtiyot choralari**

* Emlashdan keyin 15~30 daqiqa davomida emlanish joyida turing va emlashdan keyin qanday ta’sir qilishini kuzatib boring

- Agar allergiyangiz bo’lmasa, emlashdan keyin 15 daqiqa kuzatiladi

- Agar ilgari sizda allergiya bo’lsa , albatta 30 daqiqa kuzating.

* Uyga qaytgandan so’ng kami 3 soat davomida dam olgan holatda salbiy reaksiyalarni diqqat bilan kuzating.

*Emlashdan keyin kamida 3 kun davomida alomatlarga e’tibor bering.

*Emlash kuni, undan keyingi kunlari og’ir jismoniy mashqlar va spirtli ichkilikdan saqlaning.

*Emlash kuni siz cho’milmasligingiz kerak.

*Emlangan qo’l qismini toza tuting.

*Keksa yoshdagi fuqarolar emlashdan keyin yolg’iz qolmasligi kerak. Emlashdan keyin salbiy alomatlar paydo bo’lsa yordam olishlari uchun birga bo’ling.

Covid 19 vaksinasi va emlash haqida qo’shimcha ma’lumot uchun www.코로나19예방접종.kr ga murojaat qiling!

<Covid19 emlashdan keyingi ko’rsatma-2>

○ **Emlashdan keyin g’ayri tabiiy holatlar.**

▸ **Emlashdan keyingi umumiy simptomlar**

Emlashdan keyin quyidagi alomatlar tez-tez uchraydi, ammo ularning aksariyati imunitedni shakillantirish payti bo’lib, ikki uch kun ichida yo’qoladi.

- emlash joyi og’rig’i, ishish, qizarish / - isitma, ko’ngil aynish, muskullarni og’rig’i / - toliqish / - bosh og’rig’i

- **Agar siz emlashdan keyin ushbu alomatlarni sezsangiz**

- Agar emlangan qo'l qismida shish yoki og'riq paydo bo'lsa, og'riq qisimni toza quruq sochiq bilan yoping va ustiga muz qo'yib kompresslang
- Agar tana harorati biroz ko'tarilsa suyuqlik ko'proq iste'mol qiling, va dam oling
- Tana boshdan oyoq og'rib, isitma ko'tarilsa, tana haroratini tushiradigan va og'riq qoldiradiruvchi antipiretik dori vositalari yordam berishi mumkin
- Emlashdan oldin isitma va og'riq qoldiruvchi dorini oldindan tayyorlab qo'ying. Alomatlar paydo bo'lganda darhol iste'mol qiling. Isitma va og'riq qoldiruvchi dori cheklanmagan, ammo iloji boricha yallig'lalishga qarshi tasiri bo'lmagan asetaminofen dori-darmonlarni istemol qilish tafsiya etiladi

- **Agar sizni emlashdan so'ng salbiy alomatlar paydo bo'lishi shubhalantirsa.**

Odatda isitma va og'riq qoldiruvchi dori vositasi orqali alomatlar yo'qoladi, agar shish, qizarish alomatlari 2 kundan ortiq kuzatilsa shifokor ko'rigidan o'ting.

Agar sizda nafas qisilishi, hushdan ketish, yuzning shishishi va boshqa kuchli allergik reaktsiyalar(anapilacis kabi) bo'lsa, darhol 119raqamga qo'ng'iroq qiling yoki yaqin atrofdagi tibbiy tez yordam bo'limiga boring.

+Emlashdan keyin sog'ligingiz holatini tekshirish https://nip.kdca.go.kr
+Emlashdan keyin allergik holatlar yuzaga kelsa https://nip.kdca.go.kr
+Emlashda yordam berishsayti (https://nip.kdca.go.kr)orqali emlashdan keyin simptomlaringizni tekshirishingiz va qanday javob berish haqida ko'rsatmalar olishingiz mumkin.

< Ushbu tarjima **DANURI 1577-1366** aloqa markazida amalga oshirildi.>